

**JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH BOSQICHIDA QONUNIYLIK PRINSIPINING TA'MINLANISHI****Nurullayev Doston Zafar o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jinoyat ishini qo'zg'atish - jinoyat protsessining dastlabki mustaqil bosqichidir. Jinoyat ishini qo'zg'atish orqali jinoyat ishi yuzasidan jinoiy-ijtimoiy munosabat boshlanadi Jinoyat-protsessual kodeksning 322-moddasiga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atish uchun shaxslarning arizalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar, ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar, jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o'zi aniqlagan holatlar, aybini bo'yniga olish haqidagi arz asos bo'ladi. Shuningdek, agarda jabrlanuvchi nochor ahvolda yoki ayblanuvchiga qaram bo'lganligi tufayli yohud boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqini va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishi qo'zg'atishiga yo'l qo'yiladi. Jinoyat ishini qo'zg'atishni dastlabki tergovning boshlang'ich qismi sifatida qarash noto'g'ri deb hisoblayman, chunki uni mustaqil bosqich deb atash uchun barcha asoslar yetarli. Jinoyat ishini qo'zg'atish: 1) tartibga solinadigan jinoiy ijtimoiy munosabatlariga; 2) protsess ishtirokchilariga; 3) o'z muddatlariga; 4) protsessual hujjatlariga ega. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat ijtimoiy munosabat yuzaga kelishi yoki barham topishi ham mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atishni ikki qismga bo'lib o'rganish lozim: 1) Jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyat; 2) Jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingi faoliyat. Jinoyat ishi qo'zg'atishgacha bo'lgan faoliyatga: 1) jinoyat haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish va ro'yxatga olish; 2) olingan ma'lumotlarni qonuniy va asosli ekanligini tekshirish. Buning uchun qo'shimcha hujjatlar, izohlar, tushuntirishlar talab qilish; 3) tergov harakatlaridan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish; 4) protsessual majburlov choralariidan ushlab turishni qo'llash; 5) Jinoyat ishini qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan JPK ning 330-moddasida belgiangan qarorlardan birini qabul qilish tegishlidir. Jinoyat ishini qo'zg'atish faoliyatining ikkinchi qismi qabul qilingan qarorga bog'liq.

Shuningdek, agar jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'g'atish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa, 1) qaromning nusxasi tergov qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yuboriladi; 2) uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning oldini olish choralari ko'riladi; 3) jinoyatni takrorlashga yo'l qo'ymaslik harakatlari olib boriladi; 4) ish uchun ahamiyatli jinoyat izlar, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va qo'riqlash yuzasidan darhol chora-tadbirlar amalga oshiriladi; 5) O'zbekiston Respublikasi JPK ning 336-moddasida belgiangan tartibda jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingi faoliyatni amalga oshirish uchun qaror tegishli organga yuboriladi. Agar jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa; 1) qaromning nusxasini tergovchi nazorat qiluvchi prokurorga, surishtiruvchi surishtiruv organining boshlig'iga yuboradi; 2) Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi va mansabdor shaxsga xabar qilinadi; 3) Agar berilgan xabar jinoyat bo'lmay, balki ma'muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoki axloq normalari buzilganligi haqidagi ma'lumot bo'lsa, huquqni buzgan shaxsga nisbatan ta'sir choralari qo'llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi

jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlariga, mansabdor shaxsga yuboriladi; 4) Agar berilgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek korxonalar, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarining fuqarolik sudlov ishlarini yuritish tartibida qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlarini buzilganligi ko'zga tashlansa, unda ishni qo'zg'atishni rad qilish bilan bir vaqtda manfaatdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim. Basharti ular ma'lum sabablarga ko'ra, sud orqali o'zlarini himoya qilishni so'rash imkoniyatiga ega bo'lmasalar, prokuror bunday shaxslarni himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat etishga haqlidir. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida: 1) jinoyat ishi qo'zg'atish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarning qat'iy belgilanganligi; 2) O'zbekiston Respublikasi JPKda belgilangan asos va sabablar bo'lmay turib jinoyat ishi qo'zg'atilmaligi; 3) anonim xabarlarga asosan jinoyat ishi qo'zg'atilmaligi; 4) qonunda belgilangan tergov harakatlaridan tashqari tergov harakatlarini o'tkazishga yo'l qo'ymaslik xarakterlidir. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining ahamiyati hodisaning jinoyat yoki jinoyat emasligini aniqlab berishidir. Aynan shu bosqichda jinoiy qilmish tasniflanadi. O'zbekiston Respublikasi JPK ning 15-moddasida jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlari prinsip darajasiga ko'tarilgan. Unda bayon qilinishiga ko'ra sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlarini topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybi bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart. Bironta jinoiy hodisa sudlanuvchi, tergovchi, prokuror va sudning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Bir tomondan qonun jinoyat sudlov ishlarini yuritishning vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tergov va protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi davlatning vakolatli organlari va mansabdor shaxslariga huquq beradi, boshqa tomondan esa, jinoyatni ochish uchun zarur bo'lgan qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, hech kimni jinoyat ishiga jalb qilinmasligi yuzasidan fuqarolar uchun huquqiy kafolat sifatida xizmat qiladi. Jinoyat protsessining ushbu birinchi va boshlang'ich bosqichida jinoyat ishi alohida shaxsga nisbatan emas, balki jinoyat holati bo'yicha faktga nisbatan qo'zg'atiladi. Jinoyat ishini qo'zg'atishda jinoiy javobgarlikka jalb qilinuvchi shaxs, odatda yo'noma'lum yoki gumonda bo'ladi, uni aniqlash jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin amalga oshiriladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat sodir etganlik to'g'risida tegishli shaxsga nisbatan ko'rsatmalar bo'lsa ham, protsessning keyingi bosqichlarida ularni tekshirib, dalillar bilan tasdiqlangandan so'ng jinoiy javobgarlik masalasi hal etiladi. Ayrim jinoyat ishlari yuzasidan jinoyat ishi tegishli shaxslarga nisbatan qo'zg'atilishi aniq bo'ladi (masalan, jinoyat sodir qilish vaqtida ushlangan gumon qilinuvchi). Bunday hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish bilan jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan o'tkaziladigan protsessual harakatlar o'zaro yaqin bo'lsa ham, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qaror jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin qabul qilinadi.

Qalbaki imzo yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'lmasligi barchamizga ma'lum. Hozirda jinoyat ishini qo'zg'atishda shaxslarning arizalari asos bo'lish amaliyoti keng tarqalgan. Shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Agarda og'zaki ariza berilsa, bu bayonnomada qayd etiladi va unda arz qiluvchining yashash va ishlash joyi, shuningdek shaxsiy hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilishi lozim. Basharti arz qiluvchi hujjat ko'rsata olmasa, uning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa yo'llar bilan tekshirib ko'riladi. Arz qiluvchi jinoyat to'g'risida bila turib yolg'on xabar bergani uchun JKning 237-moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi va bu xususda bayonnomada qayd qilinib, uning imzosi bilan tasdiqlanadi. So'ngra bayonnomada jinoyat sodir etish holatlari xususidagi ma'lumotlar arz qiluvchi nomidan iloji boricha so'zma-so'z yoziladi. Bayonnoma arz qiluvchi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanaadi. Agarda aybni og'irlashtirmaydigan holatlarda nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish to'g'risidagi jinoiy ish (JK 118-moddaning 1-qismi va 119-moddaning 1-qismi) hal qilinayotgan bo'lsa, bunda

jabrlanuvchi uni zo'rlagan shaxsni javobgarlikka tortishni so'rab, yozma yoki og'zaki arizani o'z xohishi bilan berishi kerak. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat to'g'risida berilgan xabar xizmat xati yoki tasdiqlangan telefonogramma, telegramma yoxud radiogramma shaklida bo'lishi lozim. Bunday xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish sababi sifatida, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ish jarayonida olingan jinoyat to'g'risidagi ma'lumot bo'lsagina xizmat qiladi. Xabar beruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o'z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilishi mumkin. Tibbiy muassasa xodimlari pichoq, o'qotar qurollardan yaralangan, hamda jinoyat bilan bog'liq tan jarohatlari olganligi yuzasidan tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan har qanday fuqarolar to'g'risida darhol militsiyaga xabar qilishga majburdirlar. Shuningdek, muayyan jinoyat to'g'risida matbuot, radio, va televideniye, hujjatli fil'mdagi, shuningdek ommaviy axborot vositalariga yo'llangan, lekin e'lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladi. Sodir etilgan jinoyatlarning alomatlari biror-bir ariza yoki xabarlarsiz, bevosita surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan aniqlanadigan holat bu ham jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar jinoyatchilikka qarshi kurashda faol ishtirok etishga nafaqat manfaatdor shaxslar tomonidan murojaat qilingandan yoki sodir bo'lgan jinoyatlar to'g'risida xabarlar tushgandan keyin, balki tayyorlanayotgan yoki sodir bo'lgan jinoyatlar aniqlaganida jinoyat ishini qo'zg'atishga majbur ekanliklari belgilab qo'yilgan.